Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijobiy munosabat usullarini shakllantirishning psixologik-pedagogik ahamiyati

Shodiyev Ilyos Ilhom o'g'li
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 44-maktab psixologi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichining o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi muhim va hal qiluvchi o‘rni yoritilgan. Ushbu davrda o‘quvchilarda ijobiy munosabatlar, insoniy fazilatlar, o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ichki motivatsiyani rivojlantirishda pedagog va psixologlarning o‘rni ilmiy asosda bayon etilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish, o‘yin va interaktiv metodlarning samaradorligi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish zarurligi ta’kidlangan. Maqolada oila va maktab hamkorligining ahamiyati ochib berilib, o‘quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Kichik maktab yoshi, o’quvchi, bilim, moslashuv, ijobiy munosabatlar, shaxs, muhit, ota-ona, oila, o’qituvchi.

O’quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchilari uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shu kichik shaxslarning ijobiy munosabat xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratishi kerak. Bu davrida bola shaxsining shakllanishi davom etadi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida bolaning o‘z-o‘zidan oilasi, o‘qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin. Yangi faoliyatga o‘tish o‘quvchi bolaning o‘z asosiy faoliyatiga yangi munosabatni paydo qiladi. Unda ijobiy munosabat hissi o‘sa boshlaydi. U yaxshi muomala va xarakter shart ekanligini va u uning burchi ekanligini, belgilab qo‘yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O‘zini haqiqiy o‘quvchidek his qilgan holda unda yaxshi o‘quvchi bo’lishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilarning axloqiy onglari 1- va 4- sinfdagi o‘qish mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va bola o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. U o‘ziga xos bo‘lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o‘zini “Men”ini his qiladi. O‘zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, uyga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab etadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini maktab dasturiga kiritilmagan juda ko‘p atrof-muhit hodisalari va ijtimoiy ijobiy munosabatlar haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko‘pincha e’tiborga olinmaydigan ijobiy o‘yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo‘ladi. Bunday o‘yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Vatanga kerakli inson bo‘lish uchun o‘qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, ma’suliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi. Maktab ta’limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilim egallashga nisbatan qiziqishlar, intellektual qiziqishlar sezilarli darajada rivojlanadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg‘iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo‘ladi. 3 - 4- sinflarda esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqliklarni bilib olish uchun bo‘lgan qiziqishlar rivojlanadi. 3- sinfdan boshlab o‘qishga qiziqish differensiallasha boshlaydi. O‘quvchilardagi bunday qiziqishlar o‘zini anglash va o‘z xatti-harakatiga baho berishi kabi

xususiyatlarni shakllantiradi.Kichik maktab Yoshidagi bolalarning qiziqishlarida samarali o‘qish uchun halaqit beruvchi qator salbiy xarakteristikalari ham mavjud. Bu yoshidagi o‘quvchilarning qiziqishlari:

- yetarlicha amaliy natija bera olmaydi;

- qat’iy emas, vaziyatli;

-o‘quv materiali va topshiriqlar o‘quvchining joniga tez tegadi va charchashni yuzaga keltiradi;

– kam anglanilgan, o‘quvchining ma’lum bir predmetdagi nima yoqishini va nima uchun yoqishini aytib bera olmasligida ko‘rinadi;

Kichik maktab davrining so‘ngiga qadar ijobiy munosabatlar o’rnatishdagi qiyinchiliklarni yengishga nisbatan qiziqish yuzaga kelmaydi. Bularning barchasi kichik maktab yoshida qiziqishlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bo‘lib, ba’zan o‘qishga nisbatan yuzaki munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davrdagi o‘quvchilardagi motivlarning umumiy dinamikasiga nazar tashlansa, quyidagilarni ko‘rish mumkin: kichik maktab davrining boshida maktabda bo‘lishning tashqi jihatlariga, so‘ngra birinchi o‘quv mehnati natijalariga, keyinchalik, jarayonning o‘ziga, o‘qishning mazmuniga va shundan so‘nggina bilimlarni olish yo‘llariga qiziqish kuchli bo‘ladi. O‘qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish o‘qish mazmunini va bilimlarni egallash yo‘llariga qiziqish bilan mustahkamlanishi zarur. Bunday holda kichik maktab davrining oxirlariga borib, o‘qishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi ko‘zga tashlanmaydi. Bilish motivlari quyidagicha o‘zgarib boradi: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qiziqishlari alohida bir faktlarga qiziqishdan, qonuniyat va prinsiplarga qiziqishga aylanib boradi. Oxirgi yillarda o‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar kichik maktab yoshining o‘rtalariga borib bilimlarni o‘zlashtirish yo‘llariga qiziqish yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Kichik maktab davrida mustaqil ta’lim motivlari ham yuzaga kelib, lekin ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish qo‘shimcha manbalariga va qo‘shimcha kitoblarni vaqti-vaqti bilan o‘qishga qiziqish bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelganida differensial bo‘lmagan umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini chuqur anglashga, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab etishga tomon o‘zgarib, ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi. Shu jarayonda o‘quvchilar o‘qishning nafaqat tashqi talab, balki shaxsiy ehtiyoj ekanligini anglay boshlaydilar. Natijada ular bilimlarni egallashga ongli ravishda yondashib, o‘z oldilariga kichik maqsadlar qo‘yish va ularga erishishga intilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga nisbatan mas’uliyati ortib, topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi. Ular nafaqat o‘qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni bajarish, balki qo‘shimcha ma’lumot izlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi muhim intellektual ko‘nikmalarning shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, kichik maktab yoshining o‘rtalariga kelib o‘quvchilarda o‘z faoliyatini baholash, o‘z yutuq va kamchiliklarini anglash jarayoni ham faollashadi. Ular muvaffaqiyatga erishishdan qoniqish hosil qiladi, muvaffaqiyatsizlik holatlarida esa sabr-toqat bilan yana harakat qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularning emotsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur davrda o‘qituvchi va maktab psixologining roli ayniqsa muhim bo‘lib, ular o‘quvchilarda ijobiy o‘quv motivlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish va individual yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik-psixologik ta’sir natijasida o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan barqaror qiziqish, o‘z ustida ishlash va o‘zini rivojlantirishga intilish kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Bu yoshdagi vaziyatli ijtimoiy motivlar o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlashini olishga nisbatan bo‘lgan ehtiyoji hisoblanadi. Bolaning ustoziga bo‘lgan munosabati yomon baho olib xafa

bo‘lgan taqdirda ham ijobiy va unga ishonch bildirishi saqlanib qolaveradi. Unda o‘rtoqlari va sinfdoshlari o‘rtasida mavqeli bir o‘rinni egallashga harakat yuzaga kelib, asta sekinlik bilan o‘rtoqlari fikrlariga asoslanish paydo bo‘ladi. O‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qishda ma’lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, Shuningdek, tengdoshlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o‘rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o‘qishga harakat qiladi. Bu Yoshdagi bolalar doimiy ravishda o‘zlari erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo‘lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo‘riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog‘cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, Shuningdek o‘smirlik davrida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o‘zlariga o‘zlari baho beradilar. Shuningdek, o‘quvchining o‘ziga-o‘zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Shu bois, mazkur davrda bolalarning o‘z-o‘zini baholashini to‘g‘ri shakllantirish, ularda sog‘lom “men” konsepsiyasini rivojlantirish muhim pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi. Agar kattalar tomonidan berilayotgan baholar asosan ijobiy, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lsa, o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishonch, o‘z kuchiga tayanish hissi kuchayadi. Aksincha, doimiy tanqid yoki e’tiborsizlik bolaning o‘ziga bo‘lgan bahosini pasaytirib, unda ishonchsizlik va tortinchoqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash ko‘p jihatdan tashqi baholarga tayanadi, ya’ni ular o‘zlarini ko‘proq o‘qituvchi, ota-ona va tengdoshlari fikri orqali anglaydilar. Shu sababli, ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining kichik yutuqlarini ham e’tirof etish, ularni rag‘batlantirish, muvaffaqiyat hissini boshdan kechirishiga imkon yaratish muhimdir. Bu esa bolada ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi va uning keyingi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning faoliyatini baholashda individual yondashuvni qo‘llash, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish zarur. Har bir bola o‘ziga xos bo‘lgani uchun, ularning muvaffaqiyat mezonlari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda berilgan baholar o‘quvchini ruhlantiradi, o‘z ustida ishlashga undaydi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarning ishonuvchanligi va tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi ularga ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, salbiy omillardan himoya qilish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu bois, pedagog va psixologlar tomonidan bolalarda tanqidiy fikrlash, o‘z fikrini erkin ifodalash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Atlas po psixologii. Pod redaktsiey M.V.Gomezo. M. 2009.
2. Davletshin M.G. Umumiy psihologiya.Toshkent 2012.
3. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab õqituvchisi psixologiyasi. T., 2007.
4. Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya. T.2009.
5. Ziyonet.uz